

NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2024- yil yanvar-aprel oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyati korxonalarini tomonidan 7 209,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 110,9 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,8 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2024- yil yanvar-aprel oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatining 113,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati 127,7 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-aprel oylarida



2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5823,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4 % ni (2023- yilning yanvar-aprel oylarida – 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,6 % (6,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 14,9 % (12,3 %) va quyi texnologiyalisi – 77,1 % (79,3 %) ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-apel oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,9 % (2023-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,7 % (2023-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,1 % (2023-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 128,2 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,1 % (2023-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2023-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-aprel oylarida



2024-yilning yanvar-aprel oylari davomida jami sanoatda 13,1 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 32,5 % ga kamaygan), 12,6 ming tonna paxta tolasi (40,0 % ko'paygan), 5,5 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (43,9 % ga kamaygan) hamda 18,9 ming tonna paxta chigiti (16,0 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	9,8	5,5	-4,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	19,4	13,1	-6,3
Paxta tolasi, ming tonna	9,0	12,6	3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	2,8	5,1	2,3

2024- yil yanvar-aprel oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-aprel oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 72,4 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunida ham, metallurgiya sanoatining ulushi 2,9 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 95,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 211,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 297,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,0 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 340,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1094,3 mlrd.so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1171,1 mlrd.so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 76,8 mlrd.so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-aprel oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 190,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 245,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 55,3 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.

2023- yil

122,7 %

2024- yil

129,0 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 104,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 108,4 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1770,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 yil

104,6 %

2024- yil

108,4 %

Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 10,0 % ni, ya'ni jami 593,5 mlrd.so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 12,2 % ni tashkil etib, 876,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 283,4 mlrd. so'mga oshgan.

2023- yil

98,3 %

2024- yil

154,7 %

2024- yil yanvar-aprel oylarida

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 123,5 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyati bo'yicha 124,9 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 7,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami sanoatning 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,5 mlrd. so'mga kamayib, 6,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, yani 93,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 38,4 mlrd. so'mga ko'paygan va 132,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-aprel oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1293,8 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 17,9 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 384,4 mlrd.so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2224,0	1965,8	-258,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	26,4	57,3	30,9

2024- yil yanvar-aprel oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,5 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd. so'm	30,1	43,5	13,4
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,8	19,7	12,9


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 13,4 mlrd. so'm yoki 44,5 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek shahar xo'jaliklarining qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 19,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-aprel oylarida

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1226,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,0 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-aprel)

